TREVEL TELEJURNALISTIKADA BOSHLOVCHI MAHORATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i08.001

Yusupova Nargiza Qo‘ziboyevna
https://orcid.org/0009-0004-2058-2869
nargizayusupova126@gmail.com
“Toshkent” teleradiokanali davlat muassasasi muharriri
O‘zJOKU

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda trevel telejurnalistikada boshlovchi mahoratining o‘ziga xos xususiyatlari xorijiy tajriba asosida tahlil qilinadi. Boshlovchining kommunikativ, ijodiy va kasbiy kompetensiyalari, auditoriya bilan samarali muloqot o‘rnatish, shaxsiy tajriba asosida hikoyalash, voqealarda bevosita ishtirok etish hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani ta’minlash imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy trevel teleboshlovchisining asosiy funksiyalari aniqlanib, uning axborot yetkazuvchi, hikoyachi, kommunikator va kuzatuvchi sifatidagi ko‘p funksiyali media subyekti ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: trevel telejurnalistika, teleboshlovchi, boshlovchi mahorati, kommunikativ kompetensiya, storytelling, auditoriya, madaniyatlararo kommunikatsiya, sayohat dasturi

SPECIFIC FEATURES OF BEGINNER’S SKILLS IN TRAVEL TELEJOURNALISM

Yusupova Nargiza Koziboyevna
https://orcid.org/0009-0004-2058-2869
nargizayusupova126@gmail.com
Editor of the state institution of TV and radio channel “Tashkent”
UzJOKU

Abstract: This thesis analyzes the distinctive features of presenter skills in travel television journalism based on international experience. It examines the presenter’s communicative, creative, and professional competencies, including the ability to establish effective communication with the audience, use personal experience in storytelling, participate directly in events, and facilitate intercultural communication. The study identifies the key functions of the contemporary travel television presenter

(cc) BY

and substantiates the presenter's role as a multifunctional media actor who performs the functions of an information provider, storyteller, communicator, and observer.

Keywords: travel television journalism, television presenter, presenter skills, communicative competence, storytelling, audience, intercultural communication, travel program

KIRISH

Bugungi kunda globallashuv, xalqaro turizmning rivojlanishi va raqamli media imkoniyatlarining kengayishi natijasida sayohat mavzusidagi media kontentlarning mazmuni va shakli sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Trevel jurnalistika nafaqat turistik obyektlar haqida axborot berish, balki turli xalqlar va madaniyatlar bilan tanishtirish, hududlarning imijini shakllantirish hamda auditoriyaning yangi makonlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi media yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda.

Trevel telejurnalistika ushbu yo‘nalishning audiovizual shakli bo‘lib, uning ta’sirchanligi mavzu va tasviriy vositalar bilan bir qatorda boshlovchining kasbiy mahoratiga ham bevosita bog‘liq. Boshlovchining nutqiy qobiliyati, kamera oldidagi tabiiyligi, auditoriya bilan muloqot o‘rnatishi, voqealarda bevosita ishtirok etishi va sayohat jarayonini qiziqarli hikoyaga aylantira olishi dastur kommunikativ samaradorligini belgilovchi muhim omillardandir.

D. Livingston sayohatchining kuzatuvchanligi va qayd etish mahoratiga alohida e’tibor qaratib, uning yo‘lda duch kelgan hodisalarni diqqat bilan kuzatishi, tabiat va insonlar haqidagi taassurotlarini aniq hamda ishonchli tarzda qayd etishi zarurligini ta’kidlaydi. F. Hanusch va E. Fürsich trevel jurnalistikasini joylar, odamlar va madaniyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantiruvchi media amaliyoti sifatida talqin qiladi. S. Ilchenko esa zamonaviy trevel jurnalistikaning o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida sayohatga oid axborotni turli media shakllari va taqdimot usullari orqali yetkazishni ko‘rsatadi. Mazkur yondashuvlar trevel telejurnalistikada boshlovchining vazifasi oddiy axborot yetkazishdan kengroq ekanini ko‘rsatadi. Y. Zohidovaning teleboshlovchi faoliyatiga oid tadqiqotlarida ham boshlovchining auditoriya bilan kommunikativ aloqasi, ekran madaniyati va dastur mazmunini shakllantirishdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Bu jihatlar trevel telejurnalistika sharoitida yanada o‘ziga xos tus oladi. Chunki boshlovchi sayohat jarayonining bevosita ishtirokchisi sifatida voqelikni shaxsiy kuzatuv va tajribasi orqali auditoriyaga yetkazadi.

ASOSIY QISM

Trevel telejurnalistikada boshlovchi bir vaqtning o‘zida jurnalist, hikoyachi, suhbatdosh, madaniyatlararo kommunikator va auditoriya vakili sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat voqeani sharhlaydi, balki uning ichiga kiradi, mahalliy aholi bilan muloqot qiladi, turli ijtimoiy va madaniy muhitlarni kuzatadi hamda o‘z taassurotlarini

(cc) BY

tomoshabinga yetkazadi. Shu sababli boshlovchining shaxsiy obrazi va kommunikativ uslubi sayohat dasturining umumiy mazmuni va ta’sirchanligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijiy televideniye tajribasida mazkur xususiyatlarni Rajan Datar va Michael Palin faoliyatida yaqqol kuzatish mumkin. BBC News telekanalining “The Travel Show” dasturi boshlovchisi Rajan Datar faol ishtirokchi-jurnalist modelini namoyon etadi. “Rough Guide to the World’s Islands” shuningdek, “The Travel Show: Uzbekistan: The Heart of Central Asia” dasturi 2023-yil namoyish etilgan. Loyihada u O‘zbekistonga tashrif buyurib, mamlakatdagi yoshlarning jamiyat va mamlakat taraqqiyotidagi rolini yoritgan. Mazkur loyihalarda boshlovchining tabiiy kommunikativ uslubi, voqea ichida faol ishtiroki, mahalliy aholi bilan muloqot jarayonida sodda va norasmiy savollardan foydalanishi uning professional mahoratining muhim jihatlarini namoyon etadi.

Britaniyalik telejurnalist va boshlovchi Michael Palinning ijodiy faoliyati esa trevel telejurnalistikada boshlovchining shaxsiy kommunikativ uslubi va tomoshabin bilan munosabatini o‘rganish uchun muhim amaliy misol bo‘la oladi. Jumladan, BBC One kanalining “Around the World in 80 Days with Michael Palin” yoki “Himalaya”, “New Europe”, “Michael Palin in North Korea” singari sayohat dasturlari Palin boshlovchilik uslubining muhim jihati - sayohat jarayonini shaxsiy tajriba va bevosita kuzatuv orqali hikoya qilishini ko‘rsatadi. Uning trevel jurnalist va boshlovchi sifatidagi xususiyatlari haqida tadqiqotchi Petra Glover “Michael Palin’s Himalaya: Potential Impact of Television Travel Diaries on Destination Image” nomli maqolasida “Himalaya” dasturi mazmuni va boshlovchilik mahorati tahlil qilinadi. Tadqiqotga ko‘ra, boshlovchining shaxsiy obrazi namoyish etilayotgan manzillar haqida xabardorlik va ijobiy tasavvurni kuchaytiruvchi omillardan biri ekani ta’kidlanadi. Bu dasturda u mahalliy aholi bilan bevosita muloqotga kirishib, ularning kundalik turmushi va madaniy an’analarini shaxsiy kuzatuvlari orqali yoritadi. Shu sabab Michael Palinning sayohat loyihalaridagi boshlovchilik mahorati tabiiylik va samimiylik, auditoriya bilan psixologik yaqinlik o‘rnatish, sayohat jarayonini shaxsiy tajriba asosida hikoyalash, kuzatuvchanlik hamda mahalliy madaniyat va turmush tarziga qiziqish kabi o‘ziga xos xususiyatlarda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, Rajan Datar va Michael Palin misolida trevel teleboshlovchining ikki xil modelini ajratish mumkin. Rajan Datar - “faol ishtirokchi-jurnalist”, Michael Palin esa “sayohatchi-kuzatuvchi” modelini namoyon etadi. Ushbu farqlar boshlovchining kommunikativ va ijro mahoratiga bevosita bog‘liq bo‘lib, trevel telejurnalistikada mazkur mahorat dastur muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki boshlovchi nafaqat axborot yetkazuvchi subyekt, balki vizual hikoyachilik jarayonining faol ishtirokchisi sifatida auditoriya bilan bevosita emotsional va kognitiv aloqa o‘rnatadi. Xorijiy tajribaning muhim jihati

(cc) BY

shundaki, trevel loyihalarida boshlovchi shunchaki kuzatuvchi yoki voqeani sharhlovchi emas, balki uning bevosita ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada shaxsiy kuzatuv va taassurotlar auditoriya tomonidan tabiiy va ishonchli qabul qilinadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra boshlovchining nutq mahorati, improvizatsiya qobiliyati, kamera oldidagi tabiiyligi, hikoyachilik (storytelling), intervyu olib borish ko‘nikmasi, auditoriya bilan kommunikativ aloqa o‘rnatishi, madaniyatlararo kommunikatsiyani ta’minlashi hamda jurnalistik professionalligi trevel telejurnalistikasida boshlovchi faoliyatining muhim tarkibiy jihatlarini tashkil etadi. Mazkur xususiyatlardan kelib chiqib, trevel teleboshlovchining asosiy funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axborot beruvchi - sayohat obyektlari, voqea-hodisalar va manzillar haqidagi ma’lumotlarni auditoriyaga yetkazadi.

2. Yo‘lboshchi (gid) - tomoshabinni virtual sayohat jarayoniga yo‘naltirib, uning mazmuniy yo‘nalishini belgilaydi.

3. Hikoyachi (storyteller) - sayohat jarayoni va taassurotlarini izchil, qiziqarli hamda obrazli hikoyaga aylantiradi.

4. Madaniyatlararo vositachi - turli xalqlar, madaniyatlar va ijtimoiy muhit o‘rtasida kommunikativ ko‘prik vazifasini bajaradi.

5. Auditoriya vakili - tomoshabin nomidan savol beradi, qiziqish bildiradi va uning ehtimoliy ehtiyojlarini dastur mazmunida ifodalaydi.

6. Intervyuyer - mahalliy aholi, mutaxassislar va boshqa qahramonlar bilan suhbatlar orqali mavzuni ochib beradi.

7. Tahlilchi - ko‘rsatilayotgan manzil, voqea yoki hodisaning tarixiy, ijtimoiy va madaniy mazmunini izohlaydi.

8. Voqea ishtirokchisi - sayohat jarayonida bevosita qatnashib, shaxsiy tajribasi orqali voqeani auditoriyaga yetkazadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, trevel telejurnalistikada boshlovchi mahorati axborotni yetkazish bilangina cheklanmay, auditoriya bilan kommunikativ va emotsional aloqa o‘rnatish, sayohat jarayonini ta’sirchan hikoyaga aylantirish, madaniyatlararo muloqotni ta’minlash hamda voqealarda bevosita ishtirok etish kabi ko‘nikmalarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Xorijiy tajriba tahlili boshlovchining tabiiyligi, samimiyligi, improvizatsiyasi, kuzatuvchanligi va shaxsiy tajribasi trevel kontentining ishonchliligi va auditoriyaga ta’sirchanligini oshirishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, zamonaviy trevel teleboshlovchini bir vaqtning o‘zida axborot beruvchi, yo‘lboshchi, hikoyachi, madaniyatlararo vositachi, auditoriya vakili, intervyuyer, tahlilchi va voqea ishtirokchisi funksiyalarini uyg‘unlashtiruvchi ko‘p funksiyali media subyekti sifatida baholash mumkin.

(cc) BY

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Glover P. Michael Palin's Himalaya: Potential Impact of Television Travel Diaries on Destination Image // Tourism Review International. - 2012. - Vol. 16, No. 2. - P. 124.

2. Hanusch F., Fürsich E. Travel Journalism: Exploring Production, Impact and Culture. - Palgrave Macmillan, 2014. - P. 288.

3. Walter E., Gioglio J. The Power of Visual Storytelling. - New York: McGraw-Hill, 2014. - P. 213.

4. Zohidova Y. TV va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o'rni (ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari): monografiya. - T.: Mumtoz so'z, 2022. - B.176.

5. Ильченко С. Современная трэвел-журналистика: учебное пособие. - М.: Директ-Медиа, 2019. - С. 326.

6. Ливингстон Д. Путешествия и исследования в Южной Африке с 1840 по 1855 г. - М.: Географгиз, 1955. - С. 392.

7. Around the World in 80 Days with Michael Palin - BBC One, 1989. URL: https://genome.ch.bbc.co.uk/search/0/20?filt=bbc_webonly&order=-last&q=%22michael+palin%22 (murojaat sanasi: 30.05.2026).

8. Himalaya with Michael Palin - BBC One, 2004. URL: https://genome.ch.bbc.co.uk/search/0/20?filt=bbc_one&q=%22michael+palin%22 (murojaat sanasi: 10.06.2026).

9. Michael Palin's New Europe - BBC One, 2007. URL: https://www.bbc.co.uk/programmes/b0085b0s (murojaat sanasi: 15.06.2026).

10. Michael Palin in North Korea - Channel 5, 2018. URL: https://www.channel5.com/michael-palin-in-north-korea (murojaat sanasi: 10.07.2026).

11. The Travel Show - BBC News, 2013-2026. URL: https://genome.ch.bbc.co.uk/search/0/20?q=The+Travel+Show (murojaat sanasi: 20.07.2026).

12. The Travel Show: Uzbekistan: The Heart of Central Asia - BBC News, 2023. URL: https://www.rajandatar.com/ (murojaat sanasi: 20.07.2026).

(cc) BY